

BILISH JARAYONI

Karimova To‘xtaposhsha

Toshkent amaliy fanlar universitet talabasi.

Annotatsiya: Eksperimental psixologiyada bilish jarayoni insonning atrof-muhitni idrok etish, tushunish va unga moslashish qobiliyatini o‘rganadi. Bu jarayonlar qatoriga sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat va tasavvur kabi psixik funksiyalar kiradi. Eksperimental usullar yordamida bu jarayonlarning qanday ishlashi, ularning o‘zaro aloqasi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Bu tadqiqotlar inson onging murakkab mexanizmlarini chuqurroq tushunishga va psixologik nazariyalarni amaliyotda qo‘llashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: eksperimental psixologiya, bilish jarayoni, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, tasavvur, psixik funksiyalar, ong, psixologik tadqiqotlar.

Eksperimental psixologiya — psixik hodisalar va jarayonlarni ilmiy metodlar yordami bilan tadqiq qilish. Psixologiyaning fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish asosiy rol o‘ynagan. 19-asrning o‘rtalarida ilk bor sezgi, idrok yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Eksperimental psixologiyaning fan sifatida ajralib chiqishiga nemis olimi V. Vundt katta hissa qo‘shgan. Ilk eksperimental tadqiqotlar o‘zini o‘zi kuzatish uslubi yordami bilan shaxsning ichki mayllari, motivlari, fikr yuritishiga bag‘ishlangan. Keyinchalik tekshirishlar turli hayvonlarda o‘tkazila boshlagan. Ko‘p tadqiqotlarni AQShlik T.L.Morgan, E. L. Torndayk va boshqalar olib borganlar. Eksperimental psixologiya murakkab tadqiqot (ko‘p shkalali, ko‘p bosqichli) metodlari, metodikalari (ishonchliligi, kafolatliligi, test yoki retest xususiyatiga egaligi)dan tashqari elektron hisoblagichlar, texnik asboblar va moslamalar, sodda yoki murakkab tuzilgan maxsus apparatlar, zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslanadi. Eksperimental psixologiya yordamida psixik funksiyalargina emas, shu bilan birga shaxs hissiyoti, emotsiyasi, individual xususiyati, diqqat, xotira, idrok singari bilish jarayonlari ham tadqiq qilinadi. Eksperimental psixologiya tadqiqotlari natijalari psixologiya sohalari nazariyasini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Eksperimental psixologiya psixik hodisalar va jarayonlarni ilmiy metodlar yordamida tadqiq etishga qaratilgan sohadir. Ushbu yondashuv psixologiyaning fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida muhim rol o‘ynagan bo‘lib, 19-asrning o‘rtalarida sezgi va idrok kabi jarayonlarni o‘rganishga asoslangan. Nemis olimi V. Vundt eksperimental psixologiyaning shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.

Bilish jarayonlari insonning atrof-muhitni idrok etish, tushunish va unga moslashish qibiliyatini ifodalandaydi. Bu jarayonlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat va tasavvur kabi psixik funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Eksperimental psixologiya ushbu jarayonlarni chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy metodlarni qo‘llaydi.

Sezgi va idrok: Sezgi tashqi muhitdan keladigan stimullarni qabul qilish jarayoni bo‘lsa, idrok ushbu stimullarni ongli ravishda tushunish va talqin qilishdir. Eksperimental tadqiqotlar sezgi va idrokning qanday ishlashini, ularning chegaralari va cheklarini aniqlashga yordam beradi.

Xotira: Xotira o‘tmishdagi tajribalarni saqlash, eslab qolish va qayta tiklash qobiliyatidir. Eksperimental psixologiyada xotiraning turli turlari (masalan, qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira) va ularning qanday ishlashi o‘rganiladi.

Tafakkur: Tafakkur insonning muammolarni hal qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatidir. Eksperimental tadqiqotlar tafakkur jarayonlarini, shu jumladan, qaror qabul qilish va ijodkorlikni o‘rganishga qaratilgan.

Diqqat: Diqqat muayyan ma'lumot yoki faoliyatga ongli ravishda yo‘naltirilgan konsentratsiyadir. Eksperimental psixologiyada diqqatning xususiyatlari, turlari va uni boshqarish usullari tadqiq qilinadi.

Eksperimental psixologiyada qo‘llaniladigan metodlar orasida kuzatish, testlar, laboratoriya tajribalari va boshqalar mavjud. Ushbu metodlar yordamida bilish jarayonlarining mexanizmlari, ularning rivojlanishi va o‘zaro aloqalari haqida chuqurroq tushunchalar hosil qilinadi.

Odatda inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo‘lib, uning tuzulish tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, ularning bevosita yordami bilan shaxs o‘z axborotlari ko‘lamini uzlusiz ravishda boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, singari bilish jarayonlari yordamida asta-sekin anglashinish darajasiga ko‘tariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi. Bilish jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Faollik tamoyili. Bu tamoyil ko‘proq eksperimental psixologiya asosida quyidagi g‘oyaga bo‘ysunadi: Inson eshitganlarining 10% ini, ko‘rganlarining 50% ini, aytib bergenlarining 70% ini va nihoyat o‘zi qilganlarining 90% ini o‘zlashtiradi.
2. Ijodiylik tamoyili. Butamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq bo‘lgan, kashf etib ulgurilgan g‘oyalilar, qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa o‘zlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab yetadilar.
3. Xulq-atvor obyekтивlashishi (anglab yetilishi) tamoyili. Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impulsivlikdan obyekтивlik darajasiga o‘tadi va trening davomida o‘zgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor obekтивligining universal vositasi sifatida aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqani yuzaga kelishini ta’minlash trenerning mas’uliyatidir.
4. Sheriklik (Subyekt-subyektlilik) muloqoti tamoyili. Sheriklik, yoki subyekt-subyektlilik muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuyg‘ulari, qayg‘ulari, boshqa insonning shaxsiy qadr-qimmati deb tan olinadi. Buning qodlanilishi guruhda ishonch, ochiqlik iqlimini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, eksperimental psixologiyada bilish jarayonlarini o‘rganish inson onging murakkab mexanizmlarini tushunishga va psixologik nazariyalarni amaliyotda qo‘llashga xizmat qiladi. Shuningdek, bilish jarayonllari korreksiysi va taraqqiyoti hozirgi kunda juda ham muhim o‘rin egallab kelmoqda. Chunki, har bir bolaning bilish jarayoni rivojlangan bo‘lishi kerak. Ammo, zamon shiddat bilan rivojlanar ekan, texnologiya insoniyat imkoniyatlarini yanada osonlashtirib, kengaytirmoqda. Yangi texnologiya, ta’limiy pedagogik texnologiyalar bolalarning imkoniyatlari darajasida shart-sharoitlar yaratib, barcha qatori ehtiyojlarini rivojlantirmoqda. Shuningdek, har bir ota-onas bolasining embrionlik va tug‘ruqdan so‘ng toki voyaga yetguniga qadar e’tibor qaratib borishi ham shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov L.Ya. va boshqalar. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona”nashriyoti. Buxoro. 2021. B-694.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2025

2.Pavlov I.P. Dvadsatiletniy opit ob'ektivnogo izucheniya visshey pervnoydeyatelnosti (povedeniya) jivotnix. Pol. Sibr. Soch., M.-L, FA nashriyoti 1951, III tom, 309 st.

3.Toshpo'latov , A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178.